

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

IMANOVA UMIDA BAXTIYOROVNA


**MAHALLIY BYUDJETLARNI O'RTA MUDDATLI
REJALASHTIRISH ISTIQBOLLARI
08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:
iqtisodiyot fanlari doktori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**



Toshkent – 2023

1275

MUNDARIJA:

KIRISH	3	
I BOB.	MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISHNING NAZARIY, TASHKILIY-USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1.	Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishning iqtisodiy mohiyati va zarurligi	12
1.2.	Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishning tashkiliy-uslubiy jihatlari	28
1.3.	Mahalliy byudjetni rejalashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari	39
II BOB.	MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISH AMALIYOTINI JORIY ETISH HOLATI.....	51
2.1.	Mahalliy byudjetni rejalashtirishning rivojlanish tendensiyalari	51
2.2.	Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirishda daromad va xarajatlari, ularning tarkibi va barqarorlashtirish amaliyoti.....	58
2.3.	Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishning ilg'or xorij tajribasi va undan mamlakatimizda foydalanish imkoniyatlari.....	67
III BOB.	MAHALLIY BYUDJETNI O'RTA MUDDATLI REJALASHTIRISHNING KELGUSIDAGI USTUVOR YO'NALISHLARI	75
3.1.	Mahalliy byudjetlarni o'rta muddatli rejalashtirishda xarajatlarining chegaraviy miqdorini aniqlash amaliyoti.....	75
3.2.	Mahalliy byudjetni o'rta muddatli rejalashtirishni ustuvor jihatlari	86
XULOSA	121	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	123	

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. . Jahon iqtisodiyotiga global o‘zgarishlarning salbiy ta’siri oqibatida makroiqtisodiy beqarorlikning kuchayishi sharoitida davlat budgeti xarajatlarini amalga oshirishning optimal natijalarini ta’minlash dolzarbliji ortib bormoqda. Jahonda davlat budgeti mablag‘laridan foydalanish samaradorligi va natijadorligini oshirish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda mahalliy budgetni o‘rta muddatli rejalashtirish amaliyotini milliy iqtisodiyotga keng joriy etishga alohida urg‘u berilmoqda. Xususan, “1990-yilda o‘rta muddatli rejalashtirish (medium-term budgetary framework – MTBF) amaliyotini joriy qilgan davlatlar soni sanoqli bo‘lgan bo‘lsa, hozirda mazkur amaliyotni to‘liq joriy etgan davlatlar soni 132 tani tashkil etmoqda”¹. Xalqaro amaliyotga ko‘ra, o‘rta muddatli rejalashtirishni joriy etish pirovardida davlatning o‘rta va uzoq muddatli davr uchun moliyaviy resurslarini samarali taqsimlashni rag‘batlantirmoqda.

Jahonda iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashning dolzarbliji kuchayib borayotgan sharoitda mahalliy budgetlarni o‘rta muddatli rejalashtirish muammolariga yo‘naltirilgan qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Global moliyaviy beqarorlik sharoitida mahalliy budgetni o‘rta muddatli rejalashtirishning zarurligi, uning tashkiliy-uslubiy jihatlari va me’yoriy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, daromad va xarajatlari tarkibi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash, mahalliy budgetni o‘rta muddatli rejalashtirish uslubiyatiga zamonaviy vosita va usullarni joriy etish, mahalliy budgetni prognozlashtirish jarayonlarida raqamlı texnologiyalar va platformalardan foydalanish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash, aholi farovonligini oshirish hamda hududlarning o‘zaro mutanosib taraqqiyotini ta’minlashda mahalliy budgetlarni moliyalashtirish, jumladan, o‘rta muddatli rejalashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash

¹ OECD data – General Goverment. <https://data.oecd.org/gga/general-government-revenue.htm#indicator-chart>